1. KENG OSTONALI MAGISTRAL KANALINING SUV OʻTKAZGICHI HISOBI

Bunday suv oʻtkazgichlarda δ kenglik quyidagi ikki shartni qanoatlantirishi kerak:

1) δ uzunligida energiya uzunlik boʻyicha yoʻqolishi hisobga olmasa ham boʻladigan darajada kichik boʻlishi kerak;


2) δ - uzunlik maʼlum qismida oqimning tekis oʻzgaruvchan harakati kuzatilishi kerak, bunda

$$2H \leq \delta \leq 8H$$

shart bajariladi.

$\delta > 8H$ boʻlganda suv oʻtkazgich emas, kanal boʻlishi mumkin,

$\delta < 2H$ boʻlganda esa suv oqimining tekis oʻzgaruvchan harakati amalga oshmaydi.



10–rasm. Keng ostonali suv oʻtkazgichlar

Magistral kanaldagi (MK) toʻsuvchi inshoot keng ostonali suv oʻtkazgich shaklida qurilgan (ostonaning kengligi $2H < \delta < 8H$, bu erda H – ostona oldidagi napor).

Ostona kirish qismining shakli (koʻrinishi) va yuqori bʻeefdagi balandligi (C_{yu}) berilgan (kurs ishidagi dastlabki maʼlumotlar boʻyicha olinadi). Toʻsuvchi inshoot magistral kanaldan oʻtadigan sarfni oʻtkazish uchun hisoblanadi.

Berilgan maʼlumotlar: Sharshara tubining nishabligi i , yuqori va pastki bʻeفل tublari belgilarining farqi (P). Yon va oʻrta ustunlarning (oʻrta devorlarning) shakllari talaba ixtiyori boʻyicha tanlab olinadi.

Tezoqar-sharshara qurilganligi uchun MKni toʻsadigan inshoot keng ostonali koʻmilgan suv oʻtkazgich kabi ishlaydi (demak, koʻmilish koeffitsienti $\sigma_{ko'm} = 1$).

Ostonaning bir oraliq kengligi berilgan $b/H = A$ nisbat orqali aniqlanadi, oraliqlar soni esa magistral kanalda oʻtadigan sarf (bir oraliqdan oʻtadigan sarf nisbati)ga asosan hisoblanadi.

Hisoblash tartibi:

1. Suv oʻtkazgich oldidagi geometrik naporni aniqlaymiz:

$$H = h_0^{MK} - C_{yo} = 3.8 - 0.4 = 3.4m$$

Bu erda: $h_0^{MK} = 3.8m$ – MK - dagi suv oqimining normal chuqurligi;

$C_{yu} = 0.4m$ – suv o'tkazgichning yuqori b'efdagi balandligi.

2. Berilgan $b/H = 1.2 \rightarrow A$ nisbatga asosan, bir oraliq kengligini aniqlaymiz va unga eng yaqin bo'lgan standart qiymatini qabul qilamiz:

$$b = AH = 1.2 \cdot H = 1.2 \cdot 3.8 = 4.56 \quad m \Rightarrow b_{st} = 4m$$

Suv o'tkazgichdagi to'la naporni aniqlaymiz: $v_{yu} = 0.47m/s$

$$g_{MK} < 0.361\sqrt{H} \Rightarrow 0.47 < 0.361\sqrt{3.4} = 0.66$$

$$H_0 = H = 3.4m$$

Agar $g_{MK} \geq 0.361\sqrt{H}$ bo'lsa, unda to'la napor $H_0 = H + \frac{\alpha \cdot g_{MK}^2}{2 \cdot g}$.

Agar $g_{MK} < 0.361\sqrt{H}$ bo'lsa, unda to'la napor $H_0 = H$.

bu erda: g_{MK} – magistral kanaldagi oqimning o'rtacha tezligi (yaqinlashish tezligi):

$$g_{MK} = \frac{Q_{MK}}{\omega_{MK}} = \frac{Q_{MK}}{\pi_{MK} + mh_0^{MK} \overline{h_0^{MK}}}$$


3. Ostonaning pastki b'efdagi balandligini aniqlaymiz:

$$C_n = P + C_{yo} = 3 + 0.4 = 3.4m, \quad C_n > h_0.$$

4. Ostonaning shakliga qarab, sarf koeffisientini m aniqlaymiz

12-jadval

$\eta = \frac{C_{yo}}{H}$	Vertikal qirralari $ctg\theta = 0$	$ctg\theta$			
		0,5	1,0	1,5	>2,5
0.0	0.385	0.385	0.385	0.385	0.385
0.2	0.366	0.372	0.377	0.380	0.382
0.4	0.366	0.365	0.373	0.377	0.381
0.6	0.350	0.361	0.370	0.376	0.380
0.8	0.45	0.327	0.368	0.375	0.379
1.0	0.342	0.355	0.367	0.374	0.378
2.0	0.333	0.349	0.363	0.371	0.377
4.0	0.327	0.345	0.361	0.370	0.376
8.0	0.324	0.343	0.360	0.369	0.376
∞	0,32	0,340	0,358	0,368	0,375



m – sarf koeffisienti, ustunning shakliga bog'liq


$$m = 0.375$$

Qirg'oqdagi ustunlarning shaklini tanlab, ularga mos tayanch devorlarining kirish qismi shakliga bog'liq bo'lgan torayish koeffisienti ζ_y qiymatini qabul qilamiz. Keyin bir oraliq uchun yon siqilish koeffisienti qiymati aniqlanadi:


$$\varepsilon = 1 - 0.2\zeta_y \frac{H_0}{b_{st}} = 1 - 0.2 \cdot 1 \cdot \frac{3.4}{4} = 0.96$$

bu erda: H_0 – to'la napor;

b_{st} – bir oraliq (bo'linma) kengligi.



11-rasm. Oraliq ustunning turli ko'rinishlari



12-rasm. Tayanch devorlarning turli ko'rinishlari

O'rta devor (ustun) – to'suvchi inshootning o'rtasida joylashgan devor, **tayanch ustunlar** – inshootning qirg'oqlarida joylashgan devorlar.

5. To'suvchi inshootning bir oralig'idan o'tadigan sarfni aniqlaymiz (bir oraliqning suv o'tkazish qobiliyatini aniqlaymiz):

$$Q_1 = m \cdot \varepsilon \cdot b_{cm} \sqrt{2 \cdot g \cdot H_0^{3/2}} = 0.375 \cdot 0.96 \cdot 4 \cdot \sqrt{2 \cdot 10} \cdot 3.4^{3/2} = 40.4 m^3 / s$$

6. Bo'linmalarining (oraliqlarning) sonini aniqlaymiz:

$$N = \frac{Q_{mk}}{Q_1} = \frac{46}{40.4} = 1.13 \approx 2ta$$

hisoblangan songa eng yaqin bo'lgan butun sonni qabul qilamiz.

Agar $N > 1$ bo'lsa, o'rta ustunlarning shaklini va ularga mos bo'lgan oraliq tik ustunning plandagi ko'rinish shakliga bog'liq torayish koeffisienti ζ_6 aniqlab, yon siqilish koeffisientiga aniqlik kiritamiz:

$$\varepsilon = 1 - 0.2 \frac{\zeta_y + (N-1)\zeta_6}{N} \cdot \frac{H_0}{b} = 1 - 0.2 \cdot \frac{1+1 \cdot 1}{2} \cdot \frac{3.4}{4} = 0.83$$

Natijada suv o'tkazish qobiliyatini aniqlaymiz:

$$Q = m \cdot \varepsilon \cdot N \cdot b_{cm} \sqrt{2 \cdot g \cdot H_0^{3/2}} = 0.375 \cdot 0.83 \cdot 2 \cdot 4 \cdot \sqrt{2 \cdot 10} \cdot 3.4^{3/2} = 69.81 m^3 / s$$

($\sigma_{кym} = 1$)

Aniqlangan sarfning qiymati berilgan Q_{mk} -dan kichik bo'lishi mumkin emas: $Q \geq Q_{mk}$.

Agar kichik bo'lib chiqsa, qirg'oqdagi ustunlarning va o'rta devorlarning shaklini o'zgartirish kerak yoki oraliqlarning sonini ko'paytirish kerak.

7. Inshootdan keyin tezoqar-sharshara qurilgan (ko'ndalang kesimi trapesiya shaklida bo'lib), uning oxiridagi kengligi

$$b_{m.u.} = 0.8 B_{m.u.} = 0.8 \cdot 9 = 7.2 m$$

bu erda: $B_{m.u.}$ – to'suvchi inshoot kengligi.

$$B_{m.u.} = N \cdot b + (N-1)t = 2 \cdot 4 + (2-1) \cdot 1 = 9 m$$

bu erda: $t=1$ m – o'rta devorning eni

2. AMALIY PROFILLI TAQSIMLAGICH (T-1) KANALNING SUV O'TKAZGICHNI SUV O'TKAZISH QOBILIYATINI ANIQLASH

T – 1 kanalidagi to'suvchi inshoot amaliy profilli suv o'tkazgich shaklida qurilgan, ya'ni $(0,67H < \delta < 2H)$ demak

$$\delta = 1H = 2.8\text{m}$$

Suv o'tkazgich trapesiya shaklida ishlangan bo'lib,

$$C_{yu} = 1\text{m}$$

$$C_p = 2\text{m}$$

$$N = 3$$

$b = 1.5\text{m}$ berilgan bo'lsin.


Suv o'tkazgichning suv o'tkazish qobiliyatini amaliy profili suv o'tkazgichlarni hisoblash tenglamasidan tug'ridan-to'g'ri aniqlash murakkab.

$$Q = \sigma_{\kappa\gamma M} \cdot m \cdot b_x \sqrt{2g} H_0^{3/2},$$

Tenglamada m , b_x va H_0 parametrlarni berilgan qiymatlar asosida aniqlash uchun kanalidagi suvning chuqurligini aniqlash lozim. Chunki suv o'tkazgich ko'milgan-ko'milmaganligini bilish kerak. Shuning uchun bu masalani grafik usulda echishga to'g'ri keladi. Buning uchun (T-1) kanalning ishchi xarakteristika grafigini $Q_{T-1} = f(h)$ va suv o'tkazgichning suv o'tkazish qobiliyati grafigi $Q_{s.o.} = \varphi(h_{n.o.})$ bilan bog'liq ravishda qurish kerak. Pastki b'efdagi suv oqimi chuqurligiga bir necha qiymat beramiz va shu qiymatlar uchun suv o'tkazgichdan o'tadigan sarfni Q va T – 1 kanalidagi suv sarflarini Q_{T-1} aniqlaymiz. Hisoblashni to'g'ri bir-biriga teng bo'lmaguncha davom ettiramiz. Ikki chiziqning kesilish nuqtasi bizga suv o'tkazgichdan o'tadigan suv sarfini beradi.

Hisoblash tartibi:

1. Sxema masshtabda chiziladi.



13-rasm . Amaliy profilli suv o'tkazgich sxemasi

2. Suv o'tkazgichning kirish qismining shakliga qarab, sarf koeffisienti aniqlanadi:

Agar $0,5 \leq \frac{\delta}{H} < 2$ bo'lsa, sarf koeffisienti "m" quyidagi formuladan topiladi:

$$m = \frac{1}{\sqrt{4,5 + 2 \frac{\delta}{H_0}}} = \frac{1}{\sqrt{4,5 + 2 \cdot \frac{2,8}{2,8}}} = 0,37$$

3. Ustunlarning qabul qilingan shakliga qarab, ularga mos kelgan koeffisientlarni ζ_y va ζ_δ tanlab, oraliqlarning kengligini aniqlaymiz:

$$b_{suc} = \varepsilon \cdot N \cdot b = 0.56 \cdot 2 \cdot 2,8 = 3,13m$$

u holda, oqimning yon siqilish koeffisienti quyidagi tenglama orqali aniqlanadi

$$\varepsilon = 1 - 0,2 \frac{\zeta_y + (N-1) \cdot \zeta_\delta \cdot H_0^{T-1}}{N \cdot b} = 1 - 0,2 \frac{1 + (2-1) \cdot 1 \cdot 2,8}{2} = 0.56$$

bu yerda: $H_0^{T-1} = h_0^{MK} - C_{\kappa o} = 3,8 - 1,0 = 2,8m$ - geometrik napor, (suv oqimining kirish tezligi hisobga olinmaydi, chunki suv o'tkazgich MKdan yonga ketgan va MKdagi tezlikning T-1 ga ta'siri bo'lmaydi);

b – bir oraliqning kengligi;

N – bo'limlarning soni.

4. Suv o'tkazgich kumilmagan deb qarab, suv o'tkazish qobiliyatini aniqlaymiz ($\sigma_{\kappa y, M} = 1$):

$$Q = \varepsilon \cdot N \cdot b \cdot m \sqrt{2gH_0^{3/2}} = 0.56 \cdot 2 \cdot 4 \cdot 0.37 \cdot \sqrt{2 \cdot 10 \cdot 2,8^{3/2}} = 19,53m^3 / s.$$

5. Pastki b'efdagi (T-1 kanaldagi) suv chuqurligiga har xil qiymatlarni berib, formula bo'yicha sarfni aniqlaymiz.

A) – Agar $\frac{Z}{C_n} > \left(\frac{Z}{C_n}\right)_{kp}$ bo'lsa, suv o'tkazgich ko'milmagan ($\sigma_{\kappa y, M} = 1$), (chizmada 1-chi vaziyat).

B) – Agar $\frac{Z}{C_n} \leq \left(\frac{Z}{C_n}\right)_{kp}$ bo'lsa, suv o'tkazgich ko'milgan ($\sigma_{\kappa y, M} \neq 1$), (chizmada 2-chi vaziyati).

Bu erda: Z – yuqori va pastki b'eflardagi suv sathlarining farqi:


$$Z = H - h_{ko'm}$$

C_n – ostonaning pastki b'ef tomonidagi balandligi;

$h_{\kappa y, M}$ – ko'milish chuqurligi:

$$h_{\kappa y, M} = h_{n.\delta} - C_n.$$

$$\left(\frac{Z}{C_n}\right)_{kp} = 0.66 \text{ kritik son } \frac{H}{C_n} = 1,4 \text{ qiymatidan aniqlanadi}$$



14- rasm. $\left(\frac{Z}{C_n}\right)_{kp} = f\left(\frac{H}{C_n}\right)$ egriligi grafigi.

Agar suv o'tkazgich ko'milgan bo'lsa $\frac{Z}{C_n} \leq \left(\frac{Z}{C_n}\right)_{kp}$, ko'milish koeffisientni $\sigma_{\kappa y, M}$ G.D.

Deryugin formulasi orqali aniqlanadi:

$$\sigma_{\kappa y M} = \sqrt{1 - \left[1 - \left(1 - \frac{h_{\kappa y M}}{H_0} \right) \cdot \frac{1}{1 - \left(1 - \frac{m}{0,59} \right)^{2/5}} \right]^2}$$

Suv sarfini quyidagicha aniqlanadi:

$$Q = \sigma_{\kappa y M} \cdot \varepsilon \cdot m \cdot b \cdot N \sqrt{2gH_0^{3/2}} \quad \text{yoki} \quad Q = A \cdot \sigma_{\kappa y M}$$

bu erda: $A = \varepsilon \cdot m \cdot b \cdot N \sqrt{2gH_0^{3/2}}$,

Hisoblashni jadvalda keltiramiz:

13 -jadval

$h_{T-1, M}$	$Q_{T-1}, \frac{m^3}{c}$	$h_{n.6}, M$	$h_{\kappa y M}, m$	Z, m	$\frac{Z}{C_n}$	$\left(\frac{Z}{C_n} \right)_{\kappa p}$	$\frac{h_{\kappa y M}}{H_0}$	$\sigma_{\kappa y M}$	$A, m^3/s$	$Q = A \cdot \sigma_{\kappa y M}, m^3/s$
0,25	1,59375	0,25	-0,75	3,55	1,775	0.66	-0,27	1	16.74	16.74
0,5	3,375	0,5	-0,5	3,3	1,65		-0,18			
0,75	5,34375	0,75	-0,25	3,05	1,525		-0,09			
1	7,5	1	0	2,8	1,4		0			
1,25	9,84375	1,25	0,25	2,55	1,275		0,089			
1,5	12,375	1,5	0,5	2,3	1,15		0,179			
1,75	15,09375	1,75	0,75	2,05	1,025		0,268			
1,87	16,46535	2	1	1,8	0,9		0,357			
2	18	2,25	1,25	1,55	0,775		0,446			
2,25	21,09375	2,5	1,5	1,3	0,65		0,536			
2,5	24,375	2,75	1,75	1,05	0,525		0,625	0,989		16,5561
2,75	27,84375	3	2	0,8	0,4		0,714	0,992		16,6172
3	31,5	3,25	2,25	0,55	0,275		0,804	0,918		15,3657
		3,5	2,5	0,3	0,15		0,893	0,741		12,4104

$$h_{\kappa y M} = h_{n.6} - C_n = 0.25 - 1 = 0,75$$


$$Z = H_0 - h_{\kappa y M} = 2.8 - (-0.75) = 3.55m$$

$$\frac{Z}{C_n} = \frac{3,55}{2} = 1,775$$

$$Q = A \cdot \sigma_{\kappa y M} = 16,74 \cdot 1 = 16,74 m^3 / s$$

$$A = \varepsilon \cdot m \cdot b \cdot N \sqrt{2gH_0^{3/2}} = 0.56 \cdot 0.37 \cdot 4 \cdot 2 \sqrt{2 \cdot 10} \cdot 2,8^{3/2} = 16,74 m^3 / s$$

6. Jadvaldagi qiymatlar bo'yicha **suv o'tkazgichning suv o'tkazish qobiliyati grafigi** $Q_{S.O'} = \varphi(h_{n.6})$ chiziladi va unga $T-1$ kanalning **ishchi xarakteristikasi** $Q_{T-1} = f(h)$ grafigi quyiladi. Ularning kesishish nuqtasi suv o'tkazgichdan o'tadigan sarf qiymatini beradi..



15-rasm. Suv o'tkazgichning suv o'tkazish qobiliyatini aniqlash grafigi

3. TAQSIMLAGICH (T-2) KANALDAGI SUV O'TKAZGICH OSTONASIDAGI NAPORNI VA OSTONANING YUQORI BEFIDAGI BALANDLIGINI ANIQLASH

T-2 kanalidagi suv o'tkazgich egri chiziqli amaliy profilli suv o'tkazgich shaklida qurilgan.

Berilgan:

$$Q^{T-2} = 18.4 \text{ m}^3/\text{s}$$

$$h^{T-2} = 1.59 \text{ m}$$

$$b = 1.5 \text{ m}$$

$$C_p = 0.6 \text{ m}$$


$$N = 2$$

$$\text{A profil: } m = 0.49$$

Suv o'tkazgich ostonadagi naporni aniqlash uchun yaqinlashish usulidan foydalaniladi, chunki ko'milish koeffisienti ($\sigma_{\text{к.м}}$) va oqimning yon siqilish koeffisienti (ε) qiymatlari napor (H) qiymati bilan bog'langan.


Hisoblash tartibi:

1. Sxema masshtabda chiziladi.



16 -rasm - Egri chiziqli amaliy profilli suv o'tkazgich sxemasi

2. Berilgan egri chiziqli suv o'tkazgichning turiga qarab, sarf koeffisienti qabul qilinadi:



17-rasm. Egri chiziqli suv o'tkazgichlar.

3. Suv o'tkazgichni ko'milmagan ($\sigma_{\kappa y M}=1$) va yon siqilishi yo'q deb ($\varepsilon=1$) ostonadagi naporni birinchi ko'rinishda aniqlaymiz.

$$H'_0 = \left(\frac{Q^{T-2}}{\sigma_{\kappa y M} \cdot m \cdot \varepsilon \cdot b \cdot N \cdot \sqrt{2g}} \right)^{2/3} = \left(\frac{18,4}{1 \cdot 0.49 \cdot 1 \cdot 1,5 \cdot 2 \sqrt{2 \cdot 10}} \right)^{2/3} = 1.98m$$

4. Hisobga aniqlik kiritamiz. Tanlangan qirg'oqdagi ustunlarning va o'rta devorlarning shakliga qarab koefitsientlarni qabul qilamiz (ζ_y va ζ_σ) va yon siqilish koefitsientini aniqlaymiz:

$$\varepsilon = 1 - 0,2 \frac{\zeta_y + (N-1)\zeta_\sigma}{N} \frac{H'_0}{b} = 1 - 0,2 \frac{1 + (2-1) \cdot 1}{2} \cdot \frac{1.98}{1,5} = 0.8$$

5. Amaliy devorli suv o'tkazgich ko'milgan yoki ko'milmaganligini aniqlaymiz:

$$Z = (H'_0 + C_n) - h_{T-2} = (1.98 + 0,6) - 1.59 = 0,99$$

$$\left(\frac{Z}{C_n} \right)_{\kappa p} = 0.90 \text{ qiymati grafikdan } \frac{H'_0}{C_n} = 3,3 \text{ qiymatiga qarab olinadi.}$$

$$\frac{Z}{C_n} > \left(\frac{Z}{C_n} \right)_{\kappa p} \Rightarrow \frac{0,99}{0,6} = 1.65 > 0.9 \text{ demak suv o'tkazgich ko'milmagan } \sigma_{\kappa y M} = 1,0.$$

$$\text{Agar } \frac{Z}{C_n} < \left(\frac{Z}{C_n} \right)_{\kappa p} \text{ bo'lsa, suv o'tkazgich } \textit{ko'milgan} \text{ va } \sigma_{\kappa y M} \text{ G.D. Deryugin}$$

formulasidan aniqlanadi.

$$\text{Agar } \frac{Z}{C_n} > \left(\frac{Z}{C_n} \right)_{\kappa p} \text{ bo'lsa, - suv o'tkazgich } \textit{ko'milmagan} \text{ va } \sigma_{\kappa y M} = 1,0.$$

6 Ostonadagi haqiqiy naporni aniqlaymiz:

$$H_0 = \left(\frac{Q}{\sigma_{\kappa y M} \cdot m \cdot \varepsilon \cdot b \cdot N \sqrt{2g}} \right)^{2/3} = \left(\frac{18,4}{1 \cdot 0.49 \cdot 0.8 \cdot 1,5 \cdot 2 \cdot \sqrt{2 \cdot 10}} \right)^{2/3} = 2.3m .$$

7. Yuqori buef tomonidan ostonaning balandligi

$$C_{\text{ю}} = h_0^{MK} - H_0 = 3,8 - 2.3 = 1,5m .$$

4. TEKIS DARVOZANI (ZATVORNING) OCHILISH BALANDLIGINI ANIQLASH

Tekis darvoza to'suvchi to'g'on inshootda o'rnatilgan bo'lsin. To'g'on inshootdan keyin tezoqar-sharshara qurilgan. Darvozani ochilish balandligi aniqlansin.

Hisoblash tartibi:

Berilgan:


$$Q = Q^{MK} = 46 m^3/s$$

$$h_0 = 3.8m$$

$$C_{yu} = 0.4m$$

$$m = 1$$

1. Ostona oldidagi geometrik va to'la naporlarni aniqlaymiz:



18 -rasm – Suvni tekis darvoza ostidan oqib chiqish sxemasi

$$H = h_0^{MK} - C_{\text{yo}} = 3,8 - 0,4 = 3,4 \text{ m};$$

$$g = \frac{Q}{\omega} = \frac{Q}{(b + mh_0^{MK})h_0^{MK}} = \frac{46}{(4 + 1 \cdot 3,8) \cdot 3,8} = 1,55 \text{ m/s}$$

$$H_0 = H + \frac{\alpha g_{MK}^2}{2g} = 3,4 + \frac{1 \cdot 1,55^2}{2 \cdot 10} = 3,52 \text{ m}$$

2. Suv o'tkazgichni ko'milishga tekshiramiz:

$$C_n = P + C_{\text{yo}} = 3 + 0,4 = 3,4 \text{ m}$$

Agar $C_{\text{yo}} > h_0^{MK}$, unda suv o'tkazgich ko'milgan bo'ladi (49-rasm).

3. Bir oraliqdan o'tadigan sarfni aniqlaymiz:

$$\bar{Q} = \frac{Q}{N} = \frac{46}{2} = 23 \text{ m}^3/\text{s}$$

N – oraliqlar soni.

4. Tekis darvozani ko'tarilish balandligini quyidagi formuladan aniqlaymiz:

$$Q = \mu \cdot a \cdot b \cdot N \sqrt{2g(H_0 - \varepsilon \cdot a)} = 0,580 \cdot 0,2 \cdot 4 \cdot 2 \cdot \sqrt{2 \cdot 10 \cdot (3,52 - 0,122)} = 7,65 \text{ m}^3/\text{s}$$

bu erda: $\varepsilon = 0,57 + \frac{0,043}{1,1 - \frac{a}{H}} = 0,611$ - vertikal siqilish koeffisienti.

$\varphi = 0,95$ – tezlik koeffisienti;

a – darvozani ko'tarilish balandligi;


$\mu = \varepsilon \varphi = 0,615 \cdot 0,95 = 0,580$ - sarf koeffisienti.

Darvozaning ochilish balandligi tanlash usulida aniqlanadi. Darvozani ko'tarilish balandligi « a »-ga bir necha qiymat berib, shu qiymatlar uchun sarf Q aniqlanadi va $Q = f(a)$ grafigi quriladi. SHu grafikdan berilgan $\bar{Q} = Q_{MK} - Q_{m-1} = 32,2 \text{ m}^3/\text{s}$ sarf uchun darvozani ko'tarilish balandligi qiymatini aniqlaymiz. Hisob natijalarini jadvalda keltiramiz:

15 - jadval

$a, \text{ m}$	$\frac{a}{H_0}$	ε	$\varepsilon a, \text{ m}$	μ	$\sqrt{2g(H_0 - \varepsilon a)}$	$Q, \text{ m}^3/\text{s}$
0,2	0,056	0,611	0,122	0,580	8,243	7,658
0,4	0,113	0,613	0,245	0,582	8,092	15,095
0,6	0,170	0,616	0,369	0,585	7,937	22,305
0,8	0,227	0,619	0,495	0,588	7,777	29,284
0,89	0,252	0,620	0,552	0,589	7,703	32,347

Jadvaldagi qiymatlarga asosan $Q = f(a)$ grafigini quramiz va berilgan sarf uchun $\bar{Q} = Q_{MK} - Q_{m-1} = 32,2 \text{ m}^3/\text{s}$ darvozani ko'tarilish balandligini aniqlaymiz.




19- rasm - $Q = f(a)$ funksiyasi grafigi.

III. GIDRAVLIK SAKRASH

1. GIDRAVLIK SAKRASH VA UNING ELEMENTLARI

Suv oqimining notinch holatdan tinch holatga o'tishi gidravlik sakrash orqali amalga oshadi. Shunga asoslanib, unga quyidagicha ta'rif berish mumkin: **suv oqimining kritik chuqurlikdan kichik bo'lgan h' chuqurligini undan katta bo'lgan h'' chuqurlikka keskin o'tishi hodisasi gidravlik sakrash deyiladi.**



20-rasm - Gidravlik sakrash sxemasi

h' - gidravlik sakrashdan oldingi oqim chuqurligi;

h'' - gidravlik sakrashdan keyingi oqim chuqurligi;

$a = h'' - h'$ - gidravlik sakrash balandligi;

l_c - gidravlik sakrash uzunligi;

$l_{c.k.}$ - gidravlik sakrashdan keyingi uchastkaning uzunligi.

Hisoblash tartibi:

Berilgan:

$m=0$

$b_{mul}=7,2\text{m}$ (2.1-masala)

1. Sxemani masshtabda chizamiz (20 -rasm).
2. Kesimlarni (YU-YU va C-C) va taqqoslash tekisligini (O-O) belgilaymiz.

3. D.Bernulli tenglamasini pastki bœfdagi kanal tubidan o'tkazilgan taqqoslash tekisligiga (*O-O*) nisbatan yozamiz:

$$Z_{ю} + \frac{P_{ю}}{\gamma} + \frac{\alpha g_{ю}^2}{2g} = Z_c + \frac{P_c}{\gamma} + \frac{\alpha g_c^2}{2g} + h_{f(IО-C)}$$

Tenglamaning har bir hadini aniqlab, tenglamani quyidagi ko'rinishda yozamiz:

$$P + h_0^{MK} + \frac{\alpha g^2}{2g} = h_c + \frac{\alpha g_c^2}{2g} + \xi \frac{g_c^2}{2g}$$

Tenglamani quyidagicha yozish mumkin:

$$T_0^{n\delta} = h_c + (\alpha + \xi) \frac{g_c^2}{2g};$$

Agar quyidagi belgilashlarni kiritsak:

$$\alpha + \xi = \frac{1}{\varphi^2} = \frac{1}{0.9^2} = 1.23 \text{ bu erda } (\varphi = 0,9)$$

Unda

$$T_0^{n\delta} = h_c + \frac{g_c^2}{2g\varphi^2} = h_c + \frac{Q_{MK}^2}{2g\varphi^2\omega_c^2}; \quad (1)$$

Bu erda: T_0^{MK} - taqqoslash tekisligiga (*O-O*-ga) nisbatan hisoblaganda YU-YU kesimdagi to'la solishtirma energiya qiymatini quyidagicha aniqlash mumkin:

$$T_0^{MK} = P + h_0^{MK} + \frac{\alpha g_0^2}{2g} \quad (2)$$

P – MK -ning yuqori va pastki bœflarning tublari belgilarining farqi;

g_0 - yuqori bœfdagi yaqinlashish tezligi;

h_c - siqilgan kesimdagi suv oqimining chuqurligi;

g_c - siqilgan kesimdagi suv oqimining o'rtacha tezligi, $g_c = \frac{Q_{MK}}{\omega_c};$

ω_c - harakatdagi kesim yuzasi,

$m = 0$ - tezoqar- sharsharaning qiyalik koeffisienti;

φ - tezlik koeffisienti;

$h_{f(IО-C)}$ - kesimlar orasida yo'qotilgan napor.

YUqori bœfdagi to'la solishtirma energiyaning T_0^{MK} qiymati ma'lum va siqilgan kesimdagi suv chuqurligini (h_c) tanlash usulida aniqlasa bo'ladi. h_c -ga bir necha qiymatlarni berib, (1) tenglamaning o'ng tomonini hisoblaymiz. Hisoblash natijalarni jadvalda keltiramiz:

16 -jadval


h_c, m	ω_c, m^2	$g_c, m/s$	$T_0^{n\delta}, m$	T_0^{MK}, m
0,4	1,76	26,13	42,57	6,81
0,6	2,76	16,66	17,75	
0,8	3,84	11,97	9,65	
0,95	4,70	9,78	6,85	
1	5	9,2	6,22	
1,2	6,24	7,37	4,55	

$$\omega_c = h_c b_c = 0.4 \cdot 4 = 1,76 m^2$$

$$g_c = \frac{Q_{MK}}{\omega_c} = \frac{46}{1,76} = 26.13 m/s$$

$$T_0^{n\bar{o}} = h_c + \frac{g_c^2}{2g\varphi^2} = h_c + \frac{Q_{MK}^2}{2g\varphi^2 \omega_c^2} = 0.4 + \frac{46^2}{2 \cdot 10 \cdot 0.9^2 \cdot 1,76^2} = 42,57 m$$

Jadvaldagi qiymatlar asosida $T_0^{n\bar{o}} = f(h_c)$ grafigini quramiz.



21-rasm - Kesimning to'la solishtirma energiya grafigi

Quyidagi qiymat o'zgarmasdir: $\frac{\alpha Q_{MK}^2}{2g\omega_{MK}^2 \varphi^2} = const$. Grafikdan ma'lum bo'lgan yuqori b'efdagi to'la solishtirma energiyaning T_0^{MK} qiymatiga qarab h_c - ning qiymatini olamiz.

2. Sakrashning ikkinchi tutashtirish chuqurligini aniqlash.

Siqilgan kesimdagi suv chuqurligini birinchi tutashtirish chuqurligi deb qabul qilib ($h_c = h'$), ikkinchi tutash chuqurligini aniqlaymiz:

$$h_c = h'_c \Rightarrow h''_c$$

a) **Sakrash funksiyasi grafigi** orqali $\Pi(h) = f(h)$

$$\Pi(h) = \frac{\alpha Q^2}{g\omega} + h_{ozup} \omega$$

bu erda: h_{ozup} - kesim og'irlik markazining chuqurligi:

Tezoqar sharshara to'g'ri to'rtburchak bo'lgani uchun $h_{ozup} = \frac{h}{2}$;

$B_{mu} = b_{mu}$ - kesimining suv sathidagi kengligi.

Suv chuqurlikga (h) bir necha qiymat berib, $P(h)$ -ni aniqlaymiz.

17 - jadval

h, m	ω, m^2	h_{ozup}, m	$h_{ozup} \omega$	$\Pi(h)$
0,75	3,563	0,355	1,266	60,662
0,95	4,703	0,445	2,091	47,088
1	5	0,467	2,333	44,653
1,2	6,24	0,554	3,456	37,366
1,4	7,56	0,64	4,835	32,824
1,6	8,96	0,724	6,485	30,101
1,8	10,44	0,807	8,424	28,692
2	12	0,889	10,67	28,3
2,2	13,64	0,97	13,23	28,743
2,4	15,36	1,05	16,13	29,904
2,6	17,16	1,129	19,38	31,71
2,8	19,04	1,208	23	34,111
3	21	1,286	27	37,076
3,2	23,04	1,363	31,4	40,587
3,4	25,16	1,44	36,22	44,632
3,51	26,36	1,482	39,05	47,082
3,6	27,36	1,516	41,47	49,206
0,75	3,563	0,355	1,266	60,662
0,95	4,703	0,445	2,091	47,088
1	5	0,467	2,333	44,653
1,2	6,24	0,554	3,456	37,366
1,4	7,56	0,64	4,835	32,824
1,6	8,96	0,724	6,485	30,101
1,8	10,44	0,807	8,424	28,692
2	12	0,889	10,67	28,3
2,2	13,64	0,97	13,23	28,743
2,4	15,36	1,05	16,13	29,904
2,6	17,16	1,129	19,38	31,71
2,8	19,04	1,208	23	34,111
3	21	1,286	27	37,076
3,2	23,04	1,363	31,4	40,587
3,4	25,16	1,44	36,22	44,632
3,51	26,36	1,482	39,05	47,082
3,6	27,36	1,516	41,47	49,206


$$\omega = b_{mu} \cdot h = 7.2 \cdot 0.75 = 3.563 m^2$$

$$B_{mu} = b_{mu} = 7.2 m$$

$$h_{ozup} = \frac{h}{2} = \frac{0.75}{2} = 0.375 m$$

$$\Pi(h) = \frac{\alpha Q^2}{g\omega} + h_{\text{окуп}} \omega = \frac{1 \cdot 46^2}{10 \cdot 3,63} + 0,375 \cdot 3,63 = 60,662$$

Jadval asosida sakrash funksiyasi grafigini $\Pi(h) = f(h)$ quramiz:



22 – rasm - Gidravlik sakrash funksiyasi $\Pi(h) = f(h)$ grafigi

Ma'lum bo'lgan h'_c qiymatiga mos ravishda pastki qismi bilan kesishguncha gorizontall chiziq o'tkazamiz. Grafikdan h''_c qiymatini aniqlaymiz.

3. Gidravlik sakrashning xolatini aniqlash


$$h''_c > h_{\text{к.м}} \Rightarrow 3,51 > 3,2$$

$$h_{\text{к.м}} = h_{\text{нб}} - C_n = 3,8 - 0,6 = 3,2 \text{ m}$$

$h''_c < h_{\text{к.м}}$ bo'lsa, gidravlik sakrash ko'milgan;

$h''_c = h_{\text{к.м}}$ bo'lsa, gidravlik sakrash siqilgan kesimda;

$h''_c > h_{\text{к.м}}$ bo'lsa, gidravlik sakrash xaydalgan bo'ladi.



4. Sakrashning uzunligini aniqlaymiz:

Tezoqar sharshara to'g'ri to'rtburchak shaklida bo'lgani uchun sakrash uzunligini aniqlashda quyidagi formulalarda foydalanish mumkin:

1. M.D.Chertousov formulasi: $l_c = 10,3h'(\sqrt{\Pi_{\kappa}} - 1)^{0,81}$

$$\Pi_{\kappa} = \left(\frac{h_{\text{кп}}}{h'} \right)^2$$

2. F.I.Pikalov formulasi: $l_c = 4h'\sqrt{1 + 2\Pi_{\kappa 1}}$

3. N.N.Pavlovskiy formulasi (1937 y.): $l_c = 2,5(1,9h'' - h')$;

4. Sarantsev formulasi: $l_c = 4,5h''$;

5. **B.Baxmetev va Matske formulasi:** $l_c = 5(h'' - h')$;

Kanal tub nishabligi katta bo'lgan holda G.N.Kostyakova formulasi qo'llanadi:

$$CH_3 \geq (i > i_k) \quad \ell_n = \ell_n(1 + 3i).$$

$$l_c = 5(h'' - h') = 5 \cdot (3,8 - 0,95) = 12,8m$$

5. Sakrash balandligini aniqlaymiz: $a = h_c'' - h_c' = 3,51 - 0,95 = 2,56m$

6. M.D.Chertousov sakrashdan keyingi uchastkani uzunligini quyidagi formula orqali aniqlashni tavsiya qiladi:

$$\ell_{s.k} = (13 \div 15,6)h_b = 13 \cdot 4,9 = 63,7m$$

bu erda: h_b –pastki b'efdagi suv chuqurligi.

2. ENERGIYANI SO'NDIRUVCHI XOVUZ

Agar sakrash xaydalgan bo'lsa, pastki b'efga oqim zarbini kamaytirish uchun energiya so'ndiruvchi devor (to'siq) yoki hovuz qullaniladi.

Buning uchun suv o'tkazgich oxirining tubi « d » chuqurlikka pasaytiriladi. Unda siqilgan chuqurlik h_c kamayib borib, u bilan bog'langan h_c'' ko'payib boradi. Natijada sakrash siqilgan kesimga suriladi va pastki b'efga ta'sir kamayadi.

Hovuzning chuqurligi (d)-ni quyidagicha aniqlanadi. Sakrash ayni siqilgan kesimda bo'lishi sharti bajarilishi uchun quyidagi tenglamani yozamiz:


$$\mathcal{E}_c'' = \mathcal{E}_{n.b.} + d \quad (1)$$

bu erda

$$\mathcal{E}_c'' = h_c'' + \frac{\alpha Q_c''^2}{2g}; \text{ yoki } \mathcal{E}_c'' = h_c'' + \frac{\alpha Q_{MK}^2}{2g\omega^2}$$

$$\mathcal{E}_{n.b.} = h_{n.b.} + \frac{\alpha (\mathcal{Q}_{n.b.}'')^2}{2g};$$

$\mathcal{E}_c''$ va $\mathcal{E}_{n.b.}$ - sakrashdan keyingi va pastki b'efdagi kesimlarning solishtirma energiyalari.



23-rasm. Energiya so'ndiruvchi hovuz sxemasi.

Hisoblash tartibi:

Berilgan:

$$Q^{MK}=46m^3/s$$

$$h_{n.\delta}=h_0=3.8m$$

$$m=1$$

$$b_{mu}=7.2m$$

1. Pastki b'efdagi kesimning solishtirma energiyasi aniqlanadi:

$$\mathfrak{E}_{n.\delta} = h_{n.\delta} + \frac{\alpha Q^2}{2g\omega_{n.\delta}^2} = 3.8 + \frac{1 \cdot 46^2}{2 \cdot 10 \cdot 41.80^2} = 3.86m;$$

$$\omega_{n.\delta} = h_{n.\delta} (b_{mu} + mh_{n.\delta}) = 3.8 \cdot (7.2 + 1 \cdot 3.8) = 41.8m^2;$$

b_{mu} - tezoqar sharshara quyi qismining kengligi.

m - suv urilma qismining qiyalik koeffitsienti.


2. Hisoblash tanlash usulida bajariladi. Hovuz chuqurligi (d) ga bir necha qiymat berib, $h_c = f(T_0^{n\delta})$ grafikdan siqilgan kesimdagi chuqurlikni aniqlaymiz.

3. Hisoblash natijalarini jadvalda keltiramiz:

18-jadval

$d,$ m	$\mathfrak{E}_0^{n\delta} + d,$ m	$h_c,$ m	$h_c'',$ m	$\omega_c'',$ m^2	$\frac{\alpha Q_{MK}^2}{2g\omega_c^2},$ m	$\mathfrak{E}_c'',$ m	$\mathfrak{E}_{n.\delta} + d,$ m
-0,4	6,45	0,98	3,44	36,6	0,079	3,519	3,46
-0,2	6,65	0,97	3,47	37,02	0,077	3,547	3,66
-0,1	6,75	0,96	3,49	37,31	0,076	3,566	3,76
0,05	6,9	0,945	3,52	37,73	0,074	3,594	3,91
0,1	6,95	0,94	3,53	37,88	0,074	3,604	3,96
0,2	7,05	0,93	3,56	38,31	0,072	3,632	4,06
0,4	7,25	0,92	3,58	38,59	0,071	3,651	4,26
0,6	7,45	0,91	3,6	38,88	0,07	3,67	4,46

SHu jadvaldagi qiymatlarga qarab, $\mathfrak{E}_c'' = f(d)$ va $\mathfrak{E}_{n.\delta} + d = \varphi(d)$ grafiklarni quramiz (57 – rasm).



24 – rasm. Energiya so'ndiruvchi hovuz chuqurligini aniqlash grafigi

Sakrash siqilgan kesimda bo'lishini ta'minlovchi hovuzning chuqurligi (d)-ni shu grafikdan olamiz.

4. Hovuzning uzunligini N.N.Pavlovskiy formulasi bo'yicha aniqlaymiz:

$$l_{xos} = (0,7...0,8)l_{caxp} = 0,7 \cdot 22 = 15,4m$$

$$l_{caxp} = 2,5(1,9h_c'' - h_c') = 2,5 \cdot (1,9 \cdot 3,51 - 0,95) = 14,3m$$

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. **Arifjanov A. va boshqalar** Gidravliga fanidan kurs loyihasini bajarishga doir metodik qo'llanma. TIMI. 2011y
2. **Chugayev R.R.** Gidravlika.-L.: 1982yil
3. **Bozorov D.R. va boshqalar.** Gidravlika, T.: Bilim.2003yil
4. **Bozorov D.R. va boshqalar.** Gidravlika. amaliy va tajriba mashg'ulotlari to'plami. T.: 2009yil